TASDIQLAYMAN
Toshkent davlat tibbiyot
Universiteti Rektori
Sh.A. Boymuradov
“____” _____ 2025-yil

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI REKTORINING

BUYRUG‘I

TALABALARNING BITIRUV KO‘RSATKICHLARINI GENDER KESIMIDA MONITORING QILISH VA TENG IMKONIYATLARNI TA’MINLASH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Toshkent davlat tibbiyot universitetida ayol va erkak talabalar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini ta’minlash, ta’lim dasturlarini muvaffaqiyatli yakunlash ko‘rsatkichlarini gender kesimida muntazam tahlil qilish, ehtimoliy tafovutlarni aniqlash hamda zarur qo‘llab-quvvatlash choralarini belgilash maqsadida BUYURAMAN:

1. Talabalarning o‘qishni yakunlash va bitiruv ko‘rsatkichlarini gender kesimida muntazam monitoring qilish tizimi yo‘lga qo‘yilsin.

2. Registrator ofisiga:

2.1. HEMIS axborot tizimi ma’lumotlari asosida bitirgan ayol va erkak talabalar soni hamda tegishli qabul oqimlari bo‘yicha bitiruv ko‘rsatkichlarini alohida shakllantirish;

2.2. Ma’lumotlarni ta’lim bosqichi, ta’lim shakli, fakultet va tegishli qabul oqimlari kesimida, mavjud ma’lumotlar imkon bergan doirada yuritish;

2.3. Ayol va erkak talabalar bitiruv ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslama statistik ma’lumotnoma tayyorlash hamda har o‘quv yili yakunida yangilab borish;

2.4. Statistik ma’lumotlarni vakolatli bo‘linmalarga belgilangan tartibda taqdim etish, bunda shaxsga doir ma’lumotlar maxfiyligi va axborot xavfsizligi talablariga rioya etish vazifalari yuklatilsin.

3. O‘quv-uslubiy boshqarma Registrator ofisi bilan birgalikda taqdim etilgan ma’lumotlarni tahlil qilsin, ayol va erkak talabalar bitiruv ko‘rsatkichlari o‘rtasida tafovutlar mavjudligini aniqlasin hamda ularning ehtimoliy sabablarini o‘rgansin.

4. Tahlil natijalariga ko‘ra, zarurat bo‘lganda, akademik qiyinchiliklarga duch kelayotgan talabalarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash, maslahat berish, individual

akademik yordam hamda mentorlik faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilsin.

5. Xotin-qizlar maslahat kengashi talaba-qizlarning akademik va kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan maslahat va mentorlik faoliyatini amalga oshirsin hamda ushbu faoliyat natijalari bo‘yicha hujjatlashtirilgan ma’lumotlarni yuritsin.

6. Agar monitoring natijalarida ayol va erkak talabalar bitiruv ko‘rsatkichlari o‘rtasida tafovut aniqlansa, mas’ul bo‘linmalar tomonidan uni kamaytirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, ijrosi nazoratga olinsin.

7. Gender kesimidagi bitiruv ko‘rsatkichlari tahlili va amalga oshirilgan qo‘llab-quvvatlash choralari yuzasidan har o‘quv yili yakunida universitet rahbariyatiga umumlashtirilgan hisobot kiritib borilsin.

APPROVED
Rector of Tashkent State Medical University
_____ Sh.A. Boymuradov
“____” _____ 2025

TASHKENT STATE MEDICAL UNIVERSITY

ON MONITORING STUDENT GRADUATION OUTCOMES BY GENDER AND ENSURING EQUAL OPPORTUNITIES

In order to ensure equal educational opportunities for female and male students, regularly analyse programme completion and graduation outcomes by gender, identify potential differences and determine appropriate support measures, I HEREBY ORDER:

1. A system for regular monitoring of student completion and graduation outcomes by gender shall be established.

2. The Registrar’s Office shall:

2.1. use the HEMIS information system to compile separate data on the number of female and male graduates and graduation outcomes by the relevant admission cohorts;

2.2. maintain available data by level and mode of study, faculty and relevant admission cohorts;

2.3. prepare comparative statistical reports on graduation outcomes for female and male students and update them at the end of each academic year;

2.4. provide statistical data to authorised University units in accordance with established procedures, while complying with personal data confidentiality and information security requirements.

3. The Department of Academic Affairs, together with the Registrar’s Office, shall analyse the data, identify any differences in graduation outcomes between female and male students and examine their possible causes.

4. Based on the findings, proposals shall be developed, where necessary, to identify and support students experiencing academic difficulties through counselling, individual academic assistance and improved mentoring activities.

5. The Women’s Advisory Council shall implement guidance and mentoring activities to support the academic and professional development of female students and maintain documented records of these activities and their outcomes.

6. If monitoring identifies differences between the graduation outcomes of female and male students, the responsible units shall develop and implement a specific action plan to reduce those differences.

7. A consolidated report on gender-disaggregated graduation outcomes and support measures implemented shall be submitted to the University administration at the end of each academic year.